

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 oktabr holatiga 1915,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 21,1 ming kishiga yoki 1,1 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 707,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,9 %), qishloq aholisi soni 1208,6 ming kishini (63,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2019 yil yanvar-sentabr

- Aholi soni **21,1 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **29,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **5,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limalarida **10,2 mingta nikoh** va **1,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-sentabr oylarida)

**Tirik
tug'ilganlar
29,7 ming bola**

**Tabiiy
o'sish
23,8 ming
kishi**

**Vafot etganlar
5,9 ming kishi**

**Aholining
umumiyo'sishi
21,1 ming
kishi**

**Ko'chib
kelganlar
4,1 ming kishi**

**Mexanik
o'sish
(kamayish)
-2,7 ming
kishi**

**Ko'chib
ketganlar
6,8 ming kishi**

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqposlanishi
(2018-2019 yillar 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1 886,3	1 915,9	101,6
Buxoro sh.	277,0	279,7	101,0
Kogon sh.	60,5	61,0	100,8
tumanlar:			
Olot	97,0	98,6	101,6
Buxoro	162,2	165,2	101,8
Vobkent	136,3	138,8	101,8
G'ijduvon	297,8	302,3	101,5
Kogon	75,8	77,5	102,2
Qorako'l	160,6	163,2	101,6
Qorovulbozor	18,0	18,2	101,1
Peshko'	119,6	121,8	101,8
Romitan	137,9	140,3	101,7
Jondor	170,2	173,1	101,7
Shofirkon	173,4	176,2	101,6


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 oktabr holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 302,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,7 %ni) va Buxoro shahrida 279,7 ming kishini(14,6 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,0 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,2 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,2%ni, Buxoro, Vobkent va Peshku tumanlarida 1,8 %ni, Romitan, Jondor tumanlarida 1,7%ni, Olot, Qorako'l va Shofirkon tumanlarida 1,6%, G'ijduvon tumanida 1,5%ni va Qorovulbozor tumanida 1,1%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon shahrida 0,8% ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)




Demografik holat

Jinsi bo`yicha doimiy aholi sonining bo`linishi (2019 yil 1 oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	958,0	957,9
Buxoro sh.	139,1	140,6
Kogon sh.	29,6	31,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	49,4	49,2
Buxoro	82,9	82,3
Vobkent	69,8	69,0
G'ijduvon	154,2	148,1
Kogon	38,3	39,2
Qorako'l	80,5	82,7
Qorovulbozor	9,0	9,2
Peshku	60,5	61,3
Romitan	71,0	69,3
Jondor	85,3	87,8
Shofirkon	88,4	87,9

Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 oktabr holatiga, 1 kv kmga to`gri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 29,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega ko`paygan (2018 yilning yanvar-oktabr oylarida 20,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Qorovulbozor tumanida (19,9 promilledan 22,1 promillega), Kogon shahrida (16,8 promilledan 18,6 promillega) va Vobkent tumanida (20,7 promilledan 22,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Jondor tumanida (21,5 promilledan 20,3 promillega) va Romitan tumanida (21,2 promilledan 20,8 promillega) kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
14,2
ming nafar

O'g'il bolalar:
15,5
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



**Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi
(yanvar-sentabr)**

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	28 842	29 662	102,8
Buxoro sh.	3 424	3 841	112,2
Kogon sh.	758	845	111,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1 569	1 591	101,4
Buxoro	2 229	2 279	102,2
Vobkent	2 101	2 283	108,7
G'ijduvon	4 956	4 953	99,9
Kogon	1 292	1 303	100,9
Qorako'l	2 725	2 757	101,2
Qorovulbozor	267	299	112,0
Peshku	1 927	1 965	102,0
Romitan	2 176	2 174	99,9
Jondor	2 723	2 608	95,8
Shofirkon	2 695	2 764	102,6

Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida 5,9 mingta o`lim qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan o`zgarish kuzatilmadi.


O`lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Kogon shahrida (5,3 promilledan 4,5 promillega), Buxoro shahrida (4,9 promilledan 4,7 promillega), Vobkent (4,3 promilledan 3,9 promillega), Qorovulbozor (3,2 promilledan 2,8 promillega), G`ijduvon (4,4 promilledan 4,0 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo`lib, aksincha Shofirkon (4,1 promilledan 4,5 promillega), Qorako'l (3,8 promilledan 4,4 promillega) va Olot (4,1 promilledan 4,5 promillega) tumanlarida o`sish holati kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: 3,4 ming kishi **Ayollar:** 2,5 ming kishi

Hududlar kesimida o`lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi (yanvar-sentabr)


	2018 y.	2019 y.	O`sish sur`ati %da
Buxoro viloyati	5 785	5 911	102,2
Buxoro sh.	1 008	970	95,7
Kogon sh.	237	203	85,7
<i>tumanlar:</i>			
Olot	298	333	111,7
Buxoro	441	458	104,1
Vobkent	432	407	94,4
G'ijduvon	968	904	93,4
Kogon	241	261	108,3
Qorako'l	456	536	117,5
Qorovulbozor	43	38	90,5
Peshku	309	347	112,7
Romitan	355	364	102,8
Jondor	471	501	106,6
Shofirkon	526	589	112,0

Demografik holat

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 59,7 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,6 %i o'simtalardan, 6,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,5 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 208 nafarni tashkil etib, ularning 53,4 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 7,7 %i yuqumli parazitar kasalliklardan va 13,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2019 yil yanvar-sentabr

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 15,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 7,9 ming kishiga (2018 yilning yanvar-sentabr oylarida 23,1 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:
15,2 ming kishi


N i k o h . 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor(121,3 %), Buxoro (111,4 %), G`ijduvon tumanlari (101,2 %) va Buxoro shahri (100,7 %) ga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor (136,4 %), Romitan (126,1 %) va Buxoro (113,5 %), tumanlariga va Buxoro (112,8 %) shahriga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-sentabr)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	10217	10176	99,6	1310	1349	103,0
Buxoro sh.	1591	1602	100,7	368	415	112,8
Kogon sh. tumanlar:	340	317	93,2	66	60	90,9
Olot	591	591	100,0	51	51	100,0
Buxoro	710	791	111,4	96	109	113,5
Vobkent	740	706	95,4	69	67	97,1
G'ijduvon	1709	1730	101,2	203	173	85,2
Kogon	432	381	88,2	73	65	89,0
Qorako'l	977	934	95,6	83	87	104,8
Qorovulbozor	80	97	121,3	11	15	136,4
Peshku	643	653	101,6	48	56	116,7
Romitan	665	670	100,8	69	87	126,1
Jondor	787	753	95,7	93	81	87,1
Shofirkon	952	951	99,9	80	83	103,8

Migratsiya. 2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4,1 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,9 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	4,9	4,1
Ko'chib ketganlar	6,8	6,8
Migratsiya saldosi	-1,9	-2,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 1,0 ming kishi), G`ijduvon tumanida (minus 0,7 ming kishi) qayd etildi.

